

**O'ZBEKISTON HAMDA BELORUSIYA RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYAVIY SUDLARI FAOLIAYTI: QIYOSIY TAHLIL**

Ashuroxunova Iroda Tohir qizi
Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada O'zbekiston hamda Belorusiya Respublikasi Konstitutsiyaviy sudlarining faoliyati, sudyalarning tarkibi va ularning vakolatlari, o'zaro o'xshash va farqli jihatlari, har ikkala davlatning konstitutsiyaviy sudlarining tashkil etilish hamda faoliyat ko'rsatish davri mobaynida erishilgan yutuq va kamchilliklari o'rganilib, atroflicha tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Sud hokimiyati, sud tizimi, konstitutsiyaviy sud, dastlabki nazorat, normativ-huquqiy hujjat, kolliziya, konstitutsiyaviy nazorat

Ma'lumki, bugungi kunda butun dunyoda jamiyat hayotining barcha sohalari bo'yicha integratsion jarayonlar tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Dunyo xalqlari hozirgi kunda nafaqat iqtisodiyot sohasida, balki huquq, huquqni tushunish va huquqni qo'llash borasida ham keng hamkorlik qilishga intilmoqdalar. Shu ma'noda, davlatlarning sud-huquq tizimi, jumladan konstitutsiyaviy huquq sohasi ham bundan mustasno emas. Ya'ni, mazkur sohada yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishda huquqshunoslardan keng doiradagi bilim va dunyoqarashga ega bo'lishlari bilan bir qatorda nafaqat o'z mamalaktdagi, balki dunyodagi konstitutsiyaviy huquq sohasining ham rivojlanish qonuniyatlarini chuqur o'rganishlari hamda bu borada yetarli ko'nikma va malakani egallashlari lozim bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan vazifani amalga oshirishda ilmiy-tadqiqodning qiyosiy-huquqiy tahlil metodidan foydalanishni eng samarali natija beradigan usul sifatida e'tirof etsak, mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek, qiyosiy-huquqiy tahlilni amalga oshirishda o'z tarixiy tajribasida sezilarli yutuqlarga erishgan davlat huquqiy tizimidan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shu ma'noda, bugungi tahlilimizni O'zbekiston hamda Belorusiya konstitutsiyaviy sudlarining faoliyati doirasida amalga oshirishni lozim topdik.

Belarusiya Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi boshqa davlatlarda bo'lgani kabi o'z faoliyati tarixida ko'plab murakkab bosqichlarni bosib o'tdi. Har bir davr Konstitutsiyaviy sud faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga ega edi. Konstitutsiyaviy Sudning dastlabki yillari vakolatli organlarning hech biri Konstitutsiyaviy sudga hujjatlarni tekshirish yuzasidan takliflar bilan murojaat qilmaganligi bilan xarakterlangan va shu munosabat bilan Konstitutsiyaviy sud o'z tashabbusi bilan ishlar bo'yicha ish yuritishni boshlagan bo'lsa, bugunga kelib Konstitutsiyaviy sud faoliyati sezilarli darajada takomillashdi.

Belarusiya Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi o'z faoliyati davomida ko'plab munozaralarga sabab bo'lgan masalalarni ko'rb chiqdi. Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipining amal qilishini mohiyatan ta'minlashga xizmat qilgan 1994 yilda Minsk shahridagi umumta'lim maktablari bitiruvchilarini kasb-hunar maktablariga qabul qilish to'g'risidagi, Belarusiya Respublikasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksining 5-moddasi mahalliy hokimiyat organlariga ma'muriy javobgarlikni belgilash huquqini berish nuqtai nazaridan konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi, shuningdek, ko'p tanqidlarga sabab bo'lgan munozarali holatlardan biri Konstitutsiyaviy sudning "Belarus Respublikasida mahalliy o'zini o'zi boshqarish va mahalliy xo'jalik to'g'risida" gi qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan 1994 yil 6 oktyabrdagi qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi ishlar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Sudining faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 27-apreldagi O'RQ-687-sonli "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonun, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining Reglamenti¹ bilan tartibga solinsa, Belarusiya sud tizimi, shuningdek, Konstitutsiyaviy Sudi faoliyati Belarusiya Respublikasining Konstitutsiyasi, 2006-yil 29-iyunda qabul qilingan "Belarusiya Respublikasining sud tizimi hamda sudyalarning maqomi to'g'risida"gi (Кодэкс Рэспублікі Беларусь аб судавладкаванні і статусе суддзяў) Kodeks, 2014-yil 8-yanvarda qabul qilingan "Konstitutsiyaviy ish yurituv to'g'risida"gi (Аб канстытуцыйным судаводстве) Belarusiya Respublikasi Qonuni, Belarusiya Konstitutsiyaviy sudining Reglamenti (Рэгламент

¹ <http://lex.uz//ru/docs/5391999>



Канстытуцыйнага Суда Рэспублікі Беларусь)² bilan tartibga solinadi. Har ikki davlatning konstitutsiyaviy nazorat faoliyatini qiyosiy solishtirar ekanmiz, ular orasidagi o'xshashliklar bilan bir qatorda farqli jihatlar ham ko'zga tashlanadi. Quyida har ikki davlat konstitutsiyaviy sud tizimi, uning faoliyati doirasidagi o'zaro o'xshash hamda farqli jihatlariga atroflicha to'xtalib o'tamiz.

O'zbekiston hamda Belorusiya Respublikasi Konstitutsiyaviy sudlarining o'zaro qiyosiy tahlilini boshlar ekanmiz, dastlab, mazkur sudlarning tarkibiy tuzilishi haqida ma'lumot berishni lozim topdik.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tarkibi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 27-apreldagi O'RQ-687-sonli "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunida belgilanishicha Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi tavsiya etgan mutaxassislar orasidan, Qoraqalpog'iston Respublikasining vakilini qo'shgan holda saylanadigan, sud raisi va uning o'rinbosarini qo'shgan holda Konstitutsiyaviy sudning to'qqiz nafar sudyasidan iborat bo'lib, sudyaning vakolatlari muddati birinchi marta saylanganida besh yilni, navbatdagi saylanganida o'n yilni tashkil etadi. Konstitutsiyaviy sudning sudyasi lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshi, qoida tariqasida, yetmish yoshni tashkil etgani holda ayni bir shaxs ikki martadan ortiq Konstitutsiyaviy sudning sudyasi etib saylanishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

Belorusiya Konstitutsiyaviy sudi tarkibi 2006-yil 29-iyunda qabul qilingan "Belorusiya Respublikasining sud tizimi hamda sudyalari maqomi to'g'risida"gi (Кодэкс Рэспублікі Беларусь аб судадкладкаванні і статусе суддзяў) Kodeksning 19-moddasida keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, Belarus Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sud raisi, rais o'rinbosari hamda sudyalarni qo'shgan holda 12 nafar sudyadan iborat tarkibda tuziladi. Ushbu tarkibning olti nafari Belorusiya Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlansa, qolgan olti sudya Parlament Kengashi tomonidan saylanadi. Sudyalari vakolat muddati 11 yilni tashkil etadi. Belorusiya Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi Prezident tomonidan Parlament Kengashining roziligi bilan Belorusiya Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sudyalari orasidan besh yil muddatga tayinlanadi. Sud raisi o'rinbosari Konstitutsiyaviy sud raisi taqdimiga

² <https://pravo.by/gosudarstvo-i-pravo/sudebnaya-sistema/konstitutsionnyy-sud-respubliki-belarus/>



binoan, Konstitutsiyaviy sud sudyalari orasidan besh yil muddatga saylanadi. Konstitutsiyaviy sud sudyasi lavozimini egallash uchun qo'yilgan talablar yuqorida nomi qayd etilgan Kodeksning 73-moddasida keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, sudyalikka nomzod shaxs belarus va rus tillarini biladigan, oliy yuridik ma'lumotga ega, huquq sohasida yuqori malakali mutaxassis, qoida tariqasida, ilmiy darajaga hamda yuqori axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan Belorusiya Respublikasi fuqarosi bo'lishi shart.

Yuqorida keltirilgan qonun hujjtlarini tahlil qilar ekanmiz, ularda O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari quyidagicha keltirilganligini ko'rishimiz mumkin:

1) O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining, hukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

2) O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

3) Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlarining O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi;

5) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining muayyan ishda qo'llanilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko'rib chiqadi;

6) konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va



O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risida axborot taqdim etadi.

Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari muayyan ishda qo'llanilgan va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq bo'lmagan qonunda buzilgan deb hisoblovchi fuqarolar hamda yuridik shaxslarning shikoyatlarini ham ko'rib chiqadi.

Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolati doirasida boshqa ishlarni ham ko'radi.

Konstitutsiyaviy sud o'z vakolatlarini amalga oshirayotganda boshqa sudlarning yoki o'zga organlarning vakolatiga kiradigan barcha hollarda haqiqiy holatlarni aniqlash va tekshirishdan o'zini tiyadi.³

Belarusiya Konstitutsiyaviy sudining vakolatlari Belarusiya Respublikasi Konstitutsiyasi, "Belarusiya Respublikasining sud tizimi hamda sudylar maqomi to'g'risida"gi Kodeks, "Konstitutsiyaviy ish yurituv to'g'risida"gi Belarusiya Respublikasi Qonunida belgilab qo'yilgan. Mazkur vakolatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi vakolatlari bilan deyarli o'xshash bo'lib, farqli jihati shundaki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlasa, Belarusiya Konstitutsiyaviy sudi normativ-huquqiy hujjatlarni nafaqat Belarusiya Konstitutsiyasiga, balki Belarusiya Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro-huquqiy hujjatlarga ham muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi.

Shuningek, Belarusiya Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudidan farqli o'laroq, Belarus Respublikasi Vazirlar Kengashi qarorlarining, Belarus Respublikasi Oliy sudi, Bosh prokurori hamda boshqa davlat organlari hujjatlarining Belarus Respublikasi Konstitutsiyasiga, Belarus Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro-huquqiy hujjatlarga, qonunlar hamda Belarus Respublikasi Prezidentining farmonlariga ham muvofiqligini ko'rib chiqadi.

Belarusiya Konstitutsiyaviy sudi faoliyatidagi yana bir o'ziga xos jihat shundan iboratki, Belarusiya Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi Prezidentining taklifiga binoan, Belarusiya Respublikasi Milliy Majlisi palatalari tomonidan Konstitutsiyada belgilangan normalarning muntazam ravishda yoki qo'pol ravishda buzish faktlari

³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni, 27.04.2021 yildagi O'RQ-687-son



mavjudligi bo'yicha tekshiruv o'tkazadi hamda bu to'g'rida xulosa beradi. Shuningdek, o'rganilayotgan qonun hujjatida Konstitutsiyaviy sud mazkur masalani ko'rib chiqishni rad etishga haqli emasligi belgilab qo'yilgan.

Belarus Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi yuqorida keltirilgan vakolatlarga qo'shimcha ravishda:

majburiy dastlabki nazorat tartibida Belarus Respublikasi Milliy Majlisining Vakillar palatasi tomonidan qabul qilingan va Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Kengashi tomonidan tasdiqlangan qonunlarning (Belarus Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish, ijro etish, to'xtatib turish va bekor qilish munosabati bilan tayyorlangan qonunlar bundan mustasno.) Prezident imzolaguniga qadar Belarus Respublikasi Konstitutsiyasiga, Belarus Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro-huquqiy hujjatlarga muvofiqligi to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

Prezident taklifiga binoan, hali kuchga kirmagan xalqaro shartnomalarning Belorusiya Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qiladi;

Belarusiya Respublikasi Milliy Majlisi Kengashi Prezidiumi taklifiga binoan, mahalliy Kengash deputatlari tomonidan qonunchilik talablarining muntazam yoki qo'pol ravishda buzish faktlari mavjudligi to'g'risida qaror qabul qiladi;

Prezident taklifiga binoan, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlariga tegishli bo'lgan Prezident qaror va farmonlariga rasmiy sharh beradi;

Prezident, Belarusiya Respublikasi Milliy Majlisining Vakillar palatasi hamda Kengashi, Belarusiya Respublikasi Vazirlar Kengashining taklifiga binoan, Belarusiya Respublikasi manfaatlariga daxldor bo'lgan xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va (yoki) ularning organlari tomonidan qabul qilingan (nashr qilingan) hujjatlarning xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalariga muvofiqligi to'g'risida o'z pozitsiyasini bildiradi;

Belarus Respublikasi Prezidentining taklifiga binoan sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlarining davlat rahbari tomonidan belgilanadigan norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohalarining konstitutsiyaga muvofiqligini tekshiradi;

Normativ-huquqiy hujjatlardagi bo'shliqlar, kolliziyalar hamda huquqiy noaniqliklarni bartaraf etish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;



Har ikkala davlat sud tizimini solishtirar ekanmiz, Belorusiya Konstitutsiyaviy sudining vakolatlari keng qamrovga ega ekanligini, shuningdek, barcha davlatlar huquqiy tizimida bo'lgani kabi. Belorusiya Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining ham asosiy vazifasi normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaga muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshirish ekanligini ko'rishimiz mumkin. Konstitutsiyaviy sud ushbu funktsiyani xalqaro standartlar doirasida amalga oshiradi. Ya'ni, amaliyotda Konstitutsiyaviy Sudning har bir xulosasi Konstitutsiya normalariga, Belorusiya Respublkasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalarga, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga asosan chiqariladi.

Bizningcha, Belorusiya Konstitutsiyaviy sudi faoliyatining yutuqlaridan yana biri, normativ-huquqiy hujjatlardagi bo'shliqlar, kolliziyalar hamda huquqiy noaniqliklarni bartaraf etish to'g'risida qarorlar qabul qilish institutining joriy qilinganligidir.

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har ikki davlat, ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi ham, Belorusiya Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi ham ko'p yillik faoliyati davomida ma'lum darajada tajriba ortigan bo'lib, bu tajribadan dunyo davlatlari o'z konstitutsiyaviy sudlov, konstitutsiyaviy nazorat faoliyatlarini takomillashtirishda samarali foydalanishlari mumkin. Shu o'rinda aytish mumkinki, Belorusiya Konstitutsiyaviy sudining yuqorida ta'kidlab o'tilgan ayrim jihatlarini xorijiy tajriba sifatida milliy huquq tizimimizga ham joriy qilish maqsadga muvofiq bo'ladi nazarimizda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023.30.04.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni, 27.04.2021 yildagi O'RQ-687-son
3. Закон Республики Беларусь от 8 января 2014 года "О конституционном судопроизводстве"
- 4 <http://lex.uz//ru/docs/5391999>.
5. <https://pravo.by/gosudarstvo-i-pravo/sudebnaya-sistema/konstitutsionnyy-sud-respubliki-belarus/>

